



BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI



Научный вестник Бухарского государственного университета
Scientific reports of Bukhara State University


2/2024

E-ISSN 2181-1466



9 772181 146004

ISSN 2181-6875



9 772181 687004



@buxdu_uz



@buxdu1



@buxdu1



www.buxdu.uz

2/2024

	ionalar” hajviyalarining statistik tahlili	
Rasulov Z.I., Murtazoyev O.N.	Badiiy matn tahlilida intertekstual birliklarning ahamiyati	281
Ubaydullayeva M.O‘.	Frazeologik birliklarning semantik-grammatik va funksional xususiyatlari	285
Фалеева Е.В.	Английские неологизмы различных поп-культур	292
Шарипова Д.К.	О сравнении традиционных и современных (электронных) словарей	296
Mamarasulova G.A., Xojimurodova Sh.E.	Distinctive characteristics and complexity of socio-political texts	303
Cho‘lijev R.A.	Badiiy asar tilining o‘rganilishi va uning ahamiyati	308
Norova M.F.	Stylistic functions of jargonisms in artistic imagery	312
ADABIYOTSHUNOSLIK *** LITERARY CRITICISM *** ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ		
Ishankulova D.A.	Umar Xayyom ruboiylarining shubhali nusxasi	316
Narzullayeva F.O., Asadov A.B.	Maqol va aforizmlarning ahamiyati	321
Xamidova M.A., Odilova G.K.	O‘zbek va jahon bolalar adabiyotida glyuttonik qahramonlar va yetakchi syujetlar tahlili	327
Сафин Д.Ш.	Особенности представления дополнительных данных в словарных статьях немецких лексикографических источников (на материале «Немецко-русского словаря разговорного языка» А.В. Безрукова)	333
Gasimov R.A.	The artistic-structural essence of monologues in the dramas by Jalil Mammadguluzade	337
Ёвкачева З.М.	Типы адресантов в аспекте языковой оценки: анализ писем М.И. Цветаевой	343
Rahmonova Sh.R.	O‘zbek mumtoz adabiyotida va Navoiy ijodida ijtimoiy faol shaxs masalasi	347
Kasimova R.R., Saloyeva M.A.	Ingliz va o‘zbek topishmoqlari genezisi va spesifikasi	354
“NAVOIY GULSHANI”		
Ibotova M.O.	Alisher Navoiy g‘azaliyotida mahzun ko‘ngul, g‘amnok ruh rasviri	358
FALSAFA VA HUQUQ, SIYOSATSHUNOSLIK *** PHILOSOPHY, LAW AND POLITICAL SCIENCES *** ФИЛОСОФИЯ, ПРАВО И ПОЛИТОЛОГИЯ		
Хикматов Ш.Ш.	Ногиронлиги бўлган шахсларнинг хуқуқларига доир халқаро стандартлар	360
Qarshiyev N.O.	Markaziy Osiyo mintaqasiga xos global muammolarga yechim topishda siyosiy partiyalar faoliyatini takomillashtirish istiqbollari	367
Махмудбоев Б.	Янги Ўзбекистонда ахборот хавфсизлигини амалга оширишнинг истикболли йўналишлари	372
Саъдуллаев Ж.Н.	Жиноят процесси иштироки сифатида гувоҳ иштироки: муаммо ва таклифлар	378
Сойилов Ф.Ф.	Эксперимент тергов ҳаракатининг процессуал жиҳатлари	383
TARIX *** HISTORY *** ИСТОРИЯ		
Рашидов Ў.У.	Бухоро амирлигининг сиёсий аҳволи	389
Ergashov Z.B.	Turkiston general gubernatorligining firma va kompaniyalar bilan savdo aloqalari	394
IQTISODIYOT *** ECONOMICS *** ЭКОНОМИКА		
Salimov A.F.	Mintaqaviy statistikaning rivojlanish istiqbollari	399
Valiev O.Sh.	The role of FDI, ODA and remittances in the economic growth of Uzbekistan	403

FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING SEMANTIK-GRAMMATIK VA FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI

Ubaydullayeva Muattar O‘rinbekovna,
Buxoro davlat universiteti o‘qituvchisi
muattarubaydullayeva39@gmail.com

Annotatsiya: Frazeologizm – leksik jihatdan so‘zlarning bo‘linmaydigan birikmasi. Frazeologizmlar o‘ziga xos morfologik va sintaktik tuzilishga ega. Frazeologizmlar tarkibidagi so‘zlar grammatik va semantik jihatdan bir-biri bilan uzviy bog‘liq, bir butun ma‘no anglatadi. Ularning tarkibiy qismidan biror komponentni chiqarib tashlash mumkin emas. Frazeologizmlar ko‘chma ma‘nolarda, obrazli ifodalarda qo‘llanadi. Ular tarixiy qo‘llanish me‘yorlariga, usullariga ega bo‘lib, ma‘nolari muayyan nutqiy jarayonda oydinlashadi. Frazeologizm to‘liq yoki qisman ko‘chma ma‘noga ega bo‘lgan turg‘un so‘z birikmasidir. Frazeologizmlar yoki idiomalar til lug‘atining eng rango-rang va ifodali qismi hisoblanadi. Frazeologizmlar so‘z birikmasi shaklini yo‘qotmagan holda bitta so‘z, bitta leksema bo‘lishga intilayotgan leksikolizatsiyalashgan so‘z birikmasidir. Frazeologizmlar birdan ortiq so‘zdan tashkil topishi bilan so‘z birikmasi yoki gap tipida bo‘lsa-da, ammo u nutq birligi bo‘lgan bu birliklardan tamoman farqlanadi va lug‘aviy birlik sifatida ko‘p jihatdan so‘zlarga yaqin turadi, so‘zlarga xos bo‘lgan juda ko‘p xususiyatlar frazeologizmlarga xos.

Kalit so‘zlar: frazeologizm, leksema, component, nazariya, birikma, tip, stilistika, tilshunoslik, fraza, sintaksis.

СЕМАНТИКО-ГРАММАТИЧЕСКАЯ И ФУНКЦИОНАЛЬНАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ

Аннотация: Фразеологизм – это лексически неделимое сочетание слов. Фразеологизмы имеют свою морфологическую и синтаксическую структуру. Слова во фразеологизмах грамматически и семантически связаны друг с другом и имеют единое значение. Исключить из их состава какой-либо компонент невозможно. Фразеологизмы употребляются в зрительных значениях и образных выражениях. Они имеют исторические нормы и способы употребления, а их значение уточняется в конкретном речевом процессе. Фразеологизм – устойчивое словосочетание, имеющее полностью или частично переносное значение. Фразеологизмы или идиомы – самая красочная и выразительная часть словаря языка. Фразеологизмы – это лексикализованные словосочетания, в которых одно слово стремится быть одной лексемой, не теряя при этом формы словосочетания. Фразеологизмы имеют форму словосочетания или предложения, так как состоят более чем из одного слова, но совершенно отличны от этих единиц, которые являются речевыми единицами, и как лексическая единица во многом близки к словам, к слова. Для фразеологизмов характерно множество характерных особенностей.

Ключевые слова: фразеологизм, лексема, компонент, теория, сочетание, тип, стилистика, лингвистика, словосочетание, синтаксис.

SEMANTIC-GRAMMATICAL AND FUNCTIONAL CHARACTERISTICS OF PHRASEOLOGICAL UNITS

Abstract: Phraseologism is a lexically indivisible combination of words. Phraseologisms have their own morphological and syntactic structure. The words in the phraseological units are grammatically and semantically related to each other and have a single meaning. It is not possible to exclude any component from their composition. Phraseologisms are used in visual meanings and figurative expressions. They have historical norms and methods of use, and their meaning is clarified in a specific speech process. Phraseologism is a stable word combination that has a fully or partially figurative meaning. Phraseologisms or idioms are the most colorful and expressive part of the language dictionary. Phraseologisms are lexicalized word combinations in which one word strives to be one lexeme without losing the form of the word combination. Phraseologisms are in the form of a word combination or a sentence as they consist of more than one word, but it is completely different from these units, which are speech units, and as a lexical

unit it is close to words in many ways, to words a lot of characteristic features are characteristic of phraseologisms.

Keywords: *phraseologism, lexeme, component, theory, combination, type, stylistics, linguistics, phrase, syntax.*

Kirish. Frazeologiya xalqlarning jonli va ajoyib urf-odatları, anʼanalari va ertaklaridan namunalarni jamlagan rasmlar koʻrgazmasiga oʻxshaydi. Frazeologiya lugʻatlarning nafaqat eng rang-barang, balki eng demokratik qatlami hamdir va bu qatlam asosan “jonli” nutq vositasida boyiydi. Frazeologiya dastlab adabiyotshunoslikda paydo boʻlgan. Maʼlum bir asarni bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilganda turgʻun soʻzlar bogʻlanmasini aynan tarjima qilish mumkin boʻlmay qolgan. Bunda oʻsha tillarda mavjud boʻlgan frazeologizmlar oʻrganila boshlangan. Frazeologiya atamasi dunyo filologiyasida 1558-yilda ingliz adabiyotshunos olimi Neandr tomonidan birinchi marotaba qoʻllanilgan. U badiiy asarlarni tarjima qilarkan, shu atamani ishlatishga majbur boʻlgan. Frazeologik materiallarning koʻpgina qismi lugʻat va boshqa adabiyotlarda mujassamlashgan boʻlsada, Gʻarbiy Yevropa va Amerikaning tilshunoslikka oid adabiyotlarda frazeologiya nazariyasiga oid ilmiy ishlar ham uchraydi. Yaqin davrgacha ingliz frazeologiyasi masalalari grammatika, stilistika, leksikografiya va til tarixi doirasida oʻrganib kelingan. Barcha tillarda frazeologiya leksikologiyaning bir boʻlagi sifatida oʻrganilardi. Tilshunoslikning rivojlanishi jarayonida frazeologiya tilshunoslikning mustaqil sohasi sifatida qabul qilindi va oʻrganilib kelinmoqda. Shuni taʼkidlab oʻtish lozimki, ingliz frazeologiyasini oʻrganish boʻyicha Rossiya va Yevropaning boshqa qator mamlakatlari tilshunoslari koʻpgina ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishdi. Anchagina ijobiy natijalarga erishildi. Fransuz tilshunosi Sharl Balli frazeologiya atamasini fanga kiritgan boʻlsada, bu atama Amerika va Gʻarbiy Yevropa tilshunoslarining ishlarida oʻz aksini topgan. Balli frazeologiyani stilistika tarkibiga kiritadi. Frazeologiyani tilshunoslikning mustaqil boʻlimi sifatida oʻrganish masalasi atoqli rus tilshunosi Y.D.Polivanov tomonidan ilgari surildi. Uning taʼkidlashicha, leksika alohida soʻzlarning maʼnosini, morfologiya soʻzlarning shaklini, sintaksis esa soʻz birikmalarining shaklini oʻrganadi. Uning fikricha, ana shu til sohalari barobarida maʼlum bir soʻz birikmalarining maʼnosini oʻrganuvchi alohida sohaga ham ehtiyoj seziladi [1,53]. Y.D.Polivanov frazeologiyaning tilshunoslikda mustahkam oʻrin egallashiga ishonchi komil edi va shunday boʻldi ham. Frazeologiyani tilshunoslikning mustahkam sohasi sifatida oʻrganish masalasi rus olimi V.V.Vinogradov tomonidan ilgari surilgan. Vinogradovning buyuk xizmati shundaki, u frazeologik birikmalarni semantik jihatdan guruhlariga ajratdi. Ammo uning xizmatlariga qaramay, frazeologiya leksikologiyaning bir boʻlimi sifatida qolaverdi, chunki frazeologiya tilshunoslikning mustaqil boʻlimi boʻla olishini isbotlovchi asosiy tushunchalar ishlab chiqilmagan edi. Shunday qilib, frazeologiyani tilshunoslikning bir boʻlimi sifatida oʻrganish davom etdi. Y.D.Polivanov va V.V.Vinogradovdan soʻng birinchi boʻlib frazeologiyani tilshunoslikning mustaqil boʻlimi sifatida oʻrganish masalasini ilgari surgan olim B.A.Larin edi. U frazeologiya sohasida yetarlicha ilmiy ishlar qilinmaganini taʼkidlab oʻtdi.

Asosiy qism. Кунин А.В. “Курс фразеологии современного английского языка”. – М.: 1986.- B.187. A.V.Kuninning fikricha, frazeologiya leksikologiya boʻlimi doirasidan chiqqan, uning koʻlami va nufuzi ancha ortdi. Shunday qilib, hozirgi koʻpgina zamonaviy tillarda frazeologiya tilshunoslikning alohida boʻlimi sifatida oʻrganilmoqda. Frazeologiya sohasida koʻplab bir-biriga teskari fikrlar bildirilgan boʻlsada, ilmiy ishlar qilindi. N.N.Amosova, A.V.Kunin, B.A.Larin, V.A.Arxaangelskiy, V.V.Vinogradov, A.U.Smirnitskiy, S.S.Gorelik, I.A.Melchuk, I.I.Rezvin kabi tilshunoslarning bu sohaga qoʻshgan hissalarini buyukdir. Frazeologiya tilshunoslikning umumiy sistemasiga kiruvchi mikrosistema hisoblanadi. Tilshunos olim V.A.Arxaangelskiy frazeologiya sistemasining xususiyatlarini shunday tavsiflaydi: “Frazeologik sistema oʻzida oʻtmish merosini, qadriyatlarini aks ettiradi, u avloddan avlodga oʻtadi. Sistemani tashkil qiluvchi frazeologik birikmalarining koʻpligi, til va nutqning boyib borishi – bu omilga asosiy sababdir” [2,59]. Frazeologik sistemani frazeologik birliklar komponentlari oʻrtasidagi munosabatlar tashkil etadi. Shunday qilib, frazeologik mikrosistema ikkita bir-biriga boʻgʻliq sistemadan tashkil topgan oʻzaro munosabatlar sistemasi va tuzilish sistemasidir. Frazeologiyaning tadqiqot obyekti tilning frazeologik mikrosistemasini va uning qonuniyatlaridir. Lekin frazeologiyaga oid koʻpgina savollar, masalalar oʻz yechimini kutmoqda, frazeologik birliklarga oid qonuniyatlar toʻlaligicha ochildmagan, frazeologik daraja va frazeologik maʼno yetarlicha asoslanmagan, qoʻshma soʻz va frazeologik birlik oʻrtasidagi chegara hamma vaqt ham aniq emas, frazeologiya va frazeomatika aniq belgilanmagan. Oʻzbek tilshunosligida frazeologizmlarni oʻrganish 1950- yillarda boshlandi. Bu sohada Y.Pinxasov, M.Hasanov, I.Qoʻchqortoyev, Sh.Raxmatullayev, A.Mamatov kabi taniqli tilshunoslar ilmiy tadqiqot olib bordilar. Oʻzbek frazeologiyasi sohasida tilshunos olim Sh.Raxmatullayev qoʻshgan hissasi ulkandir. Bu olim oʻzbek iboralarning grammatik xususiyatlarini keng tadqiq qildi. U oʻzbek frazeologik birliklarini lugʻaviy birlik

sifatida o'rganishni boshlab berdi. Uning ilmiy tadqiqotlari va bu ilmiy faoliyatning mevasi bo'lgan "Frazeologik birliklarning asosiy ma'no turlari" (1955), "O'zbek frazeologiyasining ba'zi masalalari" (1966), "Nutqimiz ko'rki" (1970), "O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati" (1978) kabi qator kitoblari o'zbek tilshunosligida muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega. O'zbek frazeologiyasining xuddi ingliz frazeologiyasi kabi hajmi, o'rganish obyekti masalasi atrofida hali ham munozara bo'lib turganiga qaramay olimlar frazeologik boyliklarni turli nuqtalardan yondashib o'rganishni davom ettirmoqda. Ikki yoki undan ortiq so'zdan tarkib topgan va yaxlit bir ma'no ifodalaydigan, grammatik va semantik jihatdan bo'linmaydigan va odatda so'z ekvivalenti bo'lgan til birligi – frazeologik birlik yoki frazeologizm deyiladi.

Ingliz tilidagi ba'zi frazeologizmlar:

□ Red tape, in a brown study, Hobson's choice, to kick the bucket, to leave somebody in lurch, to set one's cap at somebody, to stand to one's guns, to catch at a straw.

O'zbek tilidagi ba'zi frazeologizmlar:

□ Qo'y og'zidan cho'p olmagan, og'zi qulog'ida, sirkasi suv ko'tarmaydi, o'takasi yorilmoq, sichqonning ini ming tanga, kovushini tog'rilab qo'ymoq, do'ppisi yarimta, yuragiga qil sig'maydi [3,78].

Tadqiqot obyekti va qo'llanilgan metodlar. Frazeologizm leksik jihatdan so'zlarning bo'linmaydigan birikmasi. Frazeologizmlar o'ziga xos morfologik va sintaktik tuzilishga ega. Frazeologizmlar tarkibidagi so'zlar grammatik va semantik jihatdan bir-biri bilan uzviy bog'liq, bir butun ma'no anglatadi. Ularning tarkibiy qismidan biror komponentni chiqarib tashlash mumkin emas. Frazeologizmlar ko'chma ma'nolarda, obrazli ifodalarda qo'llanadi. Ular tarixiy qo'llanish me'yorlariga, usullariga ega bo'lib, ma'nolari muayyan nutqiy jarayonda oydinlashadi. Frazeologizm to'liq yoki qisman ko'chma ma'noga ega bo'lgan turg'un so'z birikmasidir. Frazeologizmlar yoki idiomalar til lug'atining eng rango-rang va ifodali qismi hisoblanadi. Frazeologizmlar so'z birikmasi shaklini yo'qotmagan holda bitta so'z bitta leksema bo'lishga intilayotgan leksikolizatsiyalashgan so'z birikmasidir. Frazeologizmlar birdan ortiq so'zdan tashkil topishi bilan so'z birikmasi yoki gap tipida bo'lsada, ammo u nutq birligi bo'lgan bu birliklardan tamoman farqlanadi va lug'aviy birlik sifatida ko'p jihatdan so'zlarga yaqin turadi, so'zlarga xos bo'lgan juda ko'p xususiyatlar frazeologizmlarga xos. Frazeologizmlar ham xuddi so'zlar kabi shakl va ma'no birligiga ega. So'zning shakliy tomonini tovushlar hosil qilsa, frazeologizmlar shakliy tomonini so'zlar hosil etadi. Frazeologizmlar va so'zlar sintaktik vazifasiga ko'ra umumiylikka ega. Frazeologizmlar lug'aviy birlik bo'lganidan, xuddi so'zlar kabi gapda bir bo'lak vazifasida keladi.

Masalan: But you know it's *Hobson's choice*. Hozir Hayotning *ko'ngliga qil sig'maydi.1*

Bu har ikkala gapdagi frazeologizmlar kesim vazifasida qo'llangan. Frazeologizmlarga ham, so'zlarga o'xshab, ko'p ma'nolilik va omonimlik xos. Frazeologizmlar va so'zlar o'rtasidagi o'xshashlik *izomorfiizm* hodisasidir. Shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki, frazeologizm va so'zlar o'rtasidagi farqlar ham anchagina. Tilshunos olim A.V.Kunin bu ikki til birligi o'rtasidagi quyidagi farqlarni sanab o'tadi:

1. So'zlar va frazeologizmlar ham semantik, ham strukturaviy jihatdan farqlanadi.
2. Frazeologizmlar frazeologik ma'noga ega bo'lgan so'z birikmasidir.

Frazeologizmlar so'z birligi va gaplarning grammatik qolipi asosida yasaladi, so'zlar so'zlardan emas, balki morfema yoki negizdan tashkil topadi. So'zlar leksik ma'noga ega va so'zlarga leksik turg'unlik xos. So'zlar, ba'zi qo'shma so'zlardan tashqari, so'z birikmalarining grammatik qolipi asosida yasalmaydi. So'zlar frazeologizmlarga xos bo'lmagan prefiksial va affiksial soz' yasovchi qoliqlar asosida yasaladi.

3. Frazeologizmlar frazeologik birliklar, so'zlar esa leksik birliklardir. Frazeologizmlar so'z birikmasi yoki gaplar kabi nutq jarayonida hosil bo'lmaydi, balki ular xuddi so'zlar kabi tilda tayyor holda mavjud bo'ladi. Demak, frazeologizmlar nutq hodisasi emas, balki til hodisasidir.

To kick the bucket, red tape yoki aravani quruq olib qochmoq, nog'orasiga o'ynamoq kabilar tildagi tayyor lug'aviy birliklardir. Ba'zi frazeologizmlar tuzilishi jihatdan gap shaklida ham bo'ladi va ular nutqda gapning bir bo'lak vazifasida keladi [4,98].

Masalan: *Quling o'rgilsin, mehmonlarda uchrashib qolguncha salomat bo'ling. (O. E)* Erkin so'z birikmasi va frazeologizmlar o'rtasidagi farqlarga to'xtaladigan bo'lsak, shuni aytib o'tish kerakki, erkin so'z birikmasi tarkibiy qismlaridan birining yoki bir nechtasining o'zgarishiga yo'l qo'yadi. Ammo bunda boshqa elementlarning ma'nolari o'zgarmaydi. So'z birikmasidagi so'zlar ko'proq semantik mustaqillikka ega. Har qanday komponent boshqasining ma'nosiga ta'sir etmasdan almashinishi mumkin: *to cut bread, to cut cheese, to eat bread*. Frazeologizmlarda esa bunday holat sodir bo'lmaydi. Masalan, *red flower* birikmasini olsak, undagi *red* sifatini *yellow, white* sifatlariga almashtirish mumkin. Ammo bu almashinish so'z birikmasida nazarda tutilgan predmetga tegishlilik ma'nosini o'zgartirmaydi (biron bir rangdagi gul) Frazeologizm bo'lgan "*red tape*"da esa *red* sifatining o'zgartirilishi frazeologizmlar ma'nosining butunlay o'zgarishiga olib keladi. *A blue (black, white) tape – ko'k (qora, oq) tasma* ma'nosini bildiradi.

Frazeologizmlar va erkin soʻz bogʻlanmalari oʻrtasidagi farq juda katta. Shuni aytish mumkin, frazeologizm leksik birlik hisoblanuvchi soʻz birikmasidan tamomila farqlanuvchi alohida til birligidir [5,239].

Frazeologik iboralar va ularning semantik-grammatik tuzilishi. Frazeologizmlar frazeologik maʼno va qoʻshimcha ottenkalardan iborat boʻladi. Belgi, harakat kabilar haqidagi frazeologizm ifodalaydigan maʼlumot frazeologik maʼno deyiladi. Masalan: *Endi toʻrtinchi rotani ham ratsiya bilan taʼmin qilsak, oshiq olchi boʻlardi. Bu yerda ekanizni eshitib, hech narsa koʻzimga koʻrinmadi, uchib bora qolsam dedimi (O)*[6,43-45]. Birinchi misoldagi frazeologizm belgini, ikkinchisidagi esa harakatni bildiradi. Frazeologizmlar soʻzlar kabi yaxlit bir maʼno ifodalasada, ammo frazeologik maʼno koʻp jihatdan leksik maʼnodan farqlanadi. Shu sababdan frazeologizmlar soʻzlarga misol boʻlgan hollarda ham frazeologik maʼno bir-biriga teng boʻlmaydi. Frazeologik maʼnoning hajmi leksik maʼnoning hajmiga nisbatan keng, murakkab boʻladi. Masalan: a hard nut to crack – a very difficult problem.1 Boshida *yongʻoq chaqmoq – oʻta darajada azoblanmoq*. Koʻrinib turibdiki, bu frazeologizmlar maʼnosida “very” “oʻta darajada” komponenti bor. Frazeologik maʼno yaxlit maʼno boʻladi, frazeologizmlar tarkibidagi soʻzlar mustaqil maʼnoga ega boʻlmaydi. Shuning uchun ayrim frazeologizmlarning komponentlari oʻzgarsa ham frazeologik maʼno saqlanadi: to stand to one’s guns – to stick one’s guns; bir pul – ikki pul – uch pul. Keltirilgan dalillar frazeologizmlar garchi yaxlit maʼno ifodalasada, lekin frazeologik maʼno bilan leksik maʼno tabiati bir xil emasligini koʻrsatadi. Frazeologizmlar semantik jihatdan soʻzlardan farqli belgi-xususiyatlarga ega boʻlganligi uchun ham tilda paydo boʻlgan va yashab kelmoqda.

Iboralarning grammatik tabiati va ichki sintaktik qurilishi. Frazeologik birikmalarning ifoda plani sifatida kamida ikkita mustaqil soʻz qatnashadi [7,12]. Oʻzaro bogʻlangan bu soʻzlar mohiyatiga koʻra birikmaga yoki gapga teng boʻladi. Bunday birikma yoki gapdan yaxlitligicha anglashiladigan frazeologik maʼno uni sintaktik birlik deb emas, balki semantik birlik deb qarashga olib keladi. Shu sababli birikmaga yoki gapga tenglik haqida gapirganda iboraning ichki sintaktik qurilishi koʻzda tutiladi; ibora tarkibini sintaktik tahlil qilish nutq birligining tarkibini emas, balki til birligining tarkibini tahlil qilish boʻladi.

Umuman, ibora tarkibida qatnashgan soʻzlar orasidagi sintaktik bogʻlanish oʻz kuchini saqlaydi va faqat ichki boʻladi. Masalan, *koʻngli ogʻridi* iborasi ichki semantik qurilish jihatdan gapga teng, ayni shu birikmaning *koʻnglini ogʻritmoq* [8,90] variant esa birikmaga teng. Bunday sintaktik qayta qurilish bu feʼl iborada nisbat yasalishi munosabati bilan yuz beradi; oʻtimsiz feʼl bosh kelishidagi ot bilan munosabatga kirgan boʻlsa, ortirma nisbat yasovchisini olib oʻtimli feʼlga aylangach, ot komponentining bosh kelishigi tushum kelishigiga almashadi. Koʻrinib turibdiki, bir komponentdagi grammatik oʻzgarish ikkinchi komponentga ham shunga muqobil oʻzgarishni talab qiladi, natijada gapga teng holat birikmaga teng holatga oʻtadi. Bunday ikki xil sintaktik qurilish shaklida boʻla oluvchi iboralar anchagina:

koʻzi koʻr, qulogʻi kar boʻldi – koʻzini koʻr, qulogʻini kar qilmoq; koʻzini moshdek ochmoq – koʻzi moshdek ochildi kabi. Ortirma nisbat yasalishi doim sintaktik qurilishni oʻzgartirib yubormaydi [9,65].

Masalan, *koʻz oldiga kelmoq – koʻz oldiga keltirmoq* iborasida nisbat yasalishi sintaktik qurilishni – birikmaga teng holatni oʻzgartirmaydi, bu yasaliş tufayli ikkinchi variant oʻtimlilik kashf etadi. Bunday grammatik oʻzgarishlar iboraning faqat ifoda planida roʻy berib, uning mazmun planiga taʼsir qilmaydi. Gapga tenglikdan birikmaga tenglikka va aksincha aylanish iboralarning maʼlum bir qismigagina xos boʻlib, qolgan iboralar doimo bir sintaktik qurilish shaklida namoyon boʻladi [10,56].

Masalan: *koʻziga choʻp solmoq, koʻzini boʻyamoq, koʻz oʻngida* kabi iboralar doim birikmaga teng qurilishli shaklda; *koʻzi yetdi, koʻzi ilindi, koʻzi koʻr – qulogʻi kar* kabi iboralar doim gapga teng qurilishli shaklda ishlatiladi. Misollardan koʻrinadiki, ichki sintaktik qurilishli birikmaga teng iboralar ham, gapga teng iboralar ham yigʻiq va yoyiq boʻladi, odatdagi sintaktik bogʻlanishlarda qanday boʻlaklar qatnashsa, iboralar tarkibida ham xuddi shunday boʻlaklar qatnashadi. Yirik frazeolog olim A.V. Kuninning fikricha, frazeologizmlar nominativ, stilistik, kommunikativ, pragmatik va xulosolovchi, yakunlovchi vazifalarni bajaradi [11,10-13]. Frazeologizmlarning nominativ funksiyasi. Professor Sh.Raxmatullayev iboralarni maʼno turlari jihatdan a)nomlovchi iboralar b) ifodolovchi iboralarga ajratib tasnif qiladi: Shulardan;

- nomlovchi iboralar deyilganda olim predmetga xos belgining nomi (*doʻppining tagidek*),
- harakat holatning nomi (*ogʻiz koʻpirtirmoq*),

- harakatga xos boʻlgan belgining nomi (*eshikdan kelmay teshikdan*)ni bildiruvchi iboralarni tushunadi.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Bunday tasnif esa iboralarning maʼlum qismi matnlarda nominativ funksiya bajarishi mumkinligidan dalolat beradi.

Masalan: *belni bogʻlamoq* iborasi oddiy harakatga shaylanmoq, oʻtlanmoq maʼnosini ifodalashga xizmat qiladi: Biz chunon xizmatga belni bogʻladik, bormi himmat oʻlchagich tarozilar.

Belni bog‘lang-u jahonni to‘ldiring qog‘oz bilan.

Nutqni ixchamlash funksiyasi. Iboralarning ayrimlari ma‘noni ixchamlashtirish (lakonizatsiyalash) xususiyati bilan ajralib turadi. Bunday holatni taniqli o‘zbek shoiri Erkin Vohidov she‘riyatida qo‘llangan iboralarga doir olib borilgan kuzatishlar ham to‘la tasdiqlaydi. Masalan, adabiy tilda “*ko‘p gapirmoq*”, “*vaysaqalik qilmoq*” ma‘nolarini ixcham tarzda “gap sotishga usta bo‘lmoq” iborasi bilan ifodalanadi. “tosh otishga usta bo‘lmoq” iborasi “*yomonlik, dushmanlik hatti-harakatlarini qilmoq*” ma‘nosini anglatadi.

Obrazli ifodalash funksiyasi. Badiiy nutqda, ayniqsa, she‘riyatda qo‘shma iboralar konkret, ko‘rgazmali tasvir uchun xizmat qiladi, shaxs, predmet, voqea-hodisaning obrazli ifodasi bo‘lib keladi. Masalan, “*tishini tishiga qo‘ymoq*” iborasi “Istanbul fojiasi” she‘riy dramasidan olingan quyidagi parchada “*toqat bilan chidamoq*”, “*chidash bermoq*” ma‘nolarini obrazli tarzda ifodalashga xizmat qiladi:

Tasavvur qil qanday holga tushar xaloyiq

Tishni tishga qo‘ydim.

Yig‘in tamom bo‘ldiyu, biz shiyponga borib yetdik.

Umuman, baho funksiyali iboralar badiiy matnlarda, jumladan Erkin Vohidov sheriya-tida xarakterlovchi vositalardan biri sanaladi. Ular yordamida turli voqea-hodisalarga, predmetlarga bo‘lgan lirik qahramon munosabati ifodalanadi, voqeeband she‘rlarda, dostonlarda esa bir personaj ikkinchisini xarakterlaydi:

Biz ayollarning to‘lqinida oqib,

U kunlar haqida to‘qiyimiz doston,

Ammo o‘lganlarga she‘r, dostondan ne naf

Ne foyda yig‘lashdan qalb dardini aytib [12,96-99].

Emotsional funksiya. O‘zbek tilidagi ko‘pgina iboralarning ekspressiv-emotsional bo‘yoqdorligi ajralmas xususiyati sanaladi. Masalan, tilimizdagi “*arpasini xom o‘rmoq*” iborasi “*nima yomonlik qildi*” ma‘nosini ifodalaydi. Bu iboraning kuchli ohang bilan talaffuz qilinishiyoq undagi emotsionallikning kuchliligidan dalolat beradi.

Ekspressiv funksiya. Umuman, ibora tarkibidagi fonetik, leksik va ayrim grammatik o‘zgarishlar undagi ekpressivlik darajasining kuchayishiga olib keladi:

a) ibora tarkibidagi fonetik o‘zgarish tufayli ekpressivlik darajasining kuchayishi: *tepa sochi tikka bo‘ldi – tepa sochi tip-tikka bo‘ldi, ko‘ngli qora – ko‘ngli qop-qora, ko‘ngli toza – ko‘ngli top-toza.*

b) grammatik o‘zgarish tufayli: *nafasi ichiga tushib ketdi – nafaslari ichiga tushib ketdi, ko‘zi qiymaydi – ko‘zlari qiymaydi.*

c) leksik o‘zgarish tufayli: *narvonga minmoq – ilm narvoniga minmoq, etagini tutmoq – ilhom etagini tutmoq, jilovini tutmoq – ish jilovini tutmoq.*

Frazeologizmlar tarkibidagi so‘zlar boshqa oddiy birikmadagi so‘zlarga shaklan o‘xshab qolishi mumkin:

Qodirqul mingboshining bunaqangi ishlarga suyagi yo‘q. – Bu go‘shning suyagi yo‘q.

Mirzakarimboyning qo‘li uzun, bu ishlarni uddalaydi. – Basketbolchining qo‘li uzun edi.

Bunday hollarda frazeologik ma‘no kontekstga qarab aniqlanadi. O‘zbek frazeologizmlarining grammatik tabiati haqida so‘z borganda, ularning ichki sintaktik qurilishi, paradigmatic shakllari, iboralarning sintaktik qurshovi va ularda variantlanish hodisalarini tahlil qilish kerak bo‘ladi. Frazeologik iboralarga grammatik nuqtai nazardan qaraganda, bunday iboralarning bir xil so‘zga teng kelib, nisbiy tugal fikrni bildiradi. Mana shu xususiyatlarga qarab, frazeologik iboralarni grammatik tomondan dastlab uchga bo‘lish mumkin: [13,45].

1. So‘zga teng kelgan frazeologik iboralar: *qo‘li ochiq* (saxiy), *qo‘li qattiq* (xasis), *qattiq qo‘l* (talabchan), *ko‘zi yo‘lingda* (intizor), *ko‘zi tushdi* (ko‘rdi), *ko‘z qorachig‘i* (farzandi) kabilar.

2. So‘z birikmasiga teng kelgan frazeologik iboralar: *ko‘nglidagini ochib tashladi* (sirini aytdi), *o‘zlarining aka eskilarini taka deb yurdi* (yalanib-yolvorib yurdi), *ko‘zini shira bosgan* (muvaqqiyatlardan esankiragan).

3. Gapga teng kelgan frazeologik iboralar: *kengashli to‘y tarqamas* (har bir ish maslahat bilan bo‘lsa yaxshi), *oyni etak bilan yopib bo‘lmas* (ayb-nuqsonlarni yashirib bo‘lmaydi), *qolgan ishga qor yog‘ar* (har bir ish o‘z vaqtida bo‘lishi durust) [14,78].

So‘zga teng kelgan frazeologik iboralarga morfologik jihatdan qaraganda, bunday iboralardan kelib chiqadigan ko‘chma ma‘no fe‘l, sifat, ot va ravish so‘z turkumlariga teng kelishi mumkin. Shunga ko‘ra, so‘zga teng morfologik iboralarni morfologik tomondan asosan 4 ga bo‘lish mumkin.

1. Fe‘l frazeologik iboralar: *ko‘zi yetdi* (biladi, tushunadi), *ichi kuydi* (qayg‘urdi), *ko‘ngil qo‘ydi* (sevdi).

2. Sifat frazeologik iboralar: *terisi qalin* (beg'am, beparvo), *oq ko'ngil* (vijdonli), *dunyoni suv bossa to'pig'iga chiqmaydi* (beparvo, beg'am).

3. Ot frazeologik iboralar: *ko'z qorachig'i* (farzand), *umr bahori* (yoshlik), *aql chirog'i* (ilm), *ko'z bo'yamachilik* (aldash) [15,78-88].

4. Ravish frazeologik iboralar: *bir yoqadan bosh chiqarib* (do'stona, birgalikda), *yeng shimarib* (astoyidil), *bosh ko'tarmay* (tinmay).

Frazeologik iboralar har qanday bo'lak bo'lib keladi:

- ega vazifasida kelgan frazeologik ibora;
- kesim vazifasida kelgan frazeologik ibora;
- aniqlovchi vazifasida kelgan frazeologik ibora;
- to'ldiruvchi vazifasida kelgan frazeologik ibora;
- hol vazifasida kelgan frazeologik ibora [16,98].

Frazeologik iboralar tuzilishi jihatdan so'z birikmasi, sodda va qo'shma gap shakllarida keladi:

1. So'z birikmasi shaklidagi frazeologik ibora.

2. Sodda gap shaklidagi frazeologik ibora.

3. Qo'shma gap shaklidagi frazeologik ibora.

Ingliz tilida grammatik jihatdan tasniflangan iboralar.

Go the wrong end of the stick (misunderstand) – verb+object

Pull a fast one (trick, decisive smb) – verb+object

Poke your nose into (interfere) – verb+object

Be over the moon (extremely happy) – verb+prepositional phrase

Feel down in the dumps (depressed) – verb+prepositional phrase

Be in the red (have a negative bank balance) – verb+prepositional phrase [17,65].

Frazeologik iboralarning ifoda plani sifatida kamida ikkita mustaqil so'z qatnashadi. O'zaro sintaktik bog'langan bu so'zlar mohiyatga ko'ra birikmaga yoki gapga teng bo'ladi.1

Frazeologizm tarkibida qatnashgan so'zlar orasidagi sintaktik bog'lanish o'z kuchini saqlaydi, faqat ichki bo'ladi. Iboralarning paradigmatic shakllari (turlanishlari, tuslanishlari kabilar) dastavval ularning qaysi turkumga mansub ekanligi bilan belgilanadi. Iboralarning asosiy qismini fe'l frazeologik birliklar tashkil etadi. O'zbek tilidagi iboralarning leksik va grammatik shakllari mavjud. Leksik variantlar quyidagi turlarga bo'linadi:

a) leksik almashtirish: og'ziga talqin solmoq – og'ziga so'k solmoq;

b) leksik tanlash: daryodan bir tomchi – daryodan tomchi;

c) leksik qo'shish: esini tanimoq – es-hushini tanimoq [18,58].

Bu variantlar orasida leksik almashtirish murakkab hisoblanadi. Leksik so'z qo'shish esa eng kam uchraydi. Grammatik variantlanish ham xuddi leksik

variantlanish bo'lganidek asosan ibora tarkibidagi biror grammatik qismni almashtirish, tanlash yoki unga qo'shish voqe bo'ladi. Grammatik variantlanishda o'ziga xos hodisa – so'z komponentlarning joylashish tartibi asosida yuzaga keladigan variantlanish ham bor:

1. Almashtirish asosida paydo bo'ladigan variantlanish: o'tirgani joy topolmasdi – o'tirishga joy topolmaslik.

2. Qo'shish asosida paydo bo'ladigan variantlanish: holdan toymoq – holdan toydirmoq.

3. Tashlash asosida paydo bo'ladigan variantlanish: ko'zi ilindi – ko'z ilindi.

4. Tartib o'zgartirish asosida paydo bo'ladigan variantlashish: bog'dan kelsa– bog'dan kelmoq [19,73].

Frazeologik qo'shilma va uning turlari. Frazeologik qo'shilma ko'pincha ikki so'zdan ba'zan undan ortiq so'zdan ham tarkib topadi. Frazeologik qo'shilma tarkibidagi bir yoki ikki so'z ko'chma ma'noda qo'llanadi, boshqasi o'z leksik ma'nosini saqlagan bo'ladi. Ko'chma ma'noni ifoda etgan element yolg'iz o'zi kelganda ko'chma ma'nolik xususiyatini yo'qotib, o'z asl ma'nosini bildiradi. Shuning uchun ham frazeologik qo'shilma tarkibidagi bir elementning ko'chma ma'no ifoda etishi uchun ikkinchi elementi o'sha ma'nosida kelgan so'z bo'lishi shart. Bundan ma'lum bo'ladiki, frazeologik qo'shilmadagi bir elementdan anglashiladigan ko'chma ma'no butun bog'lanmadagi so'zlarda bog'langan ma'nodan yuzaga keladi. Shunday qilib tarkibidagi so'zlardan biri yoki ikkitasidan ko'chma ma'noga asoslangan va bog'lanmadagi barcha so'zlardagi xos mustaqil ma'no markazlarini saqlab qolgan iboralar frazeologik qo'shilma deb aytiladi. Frazeologik qo'shilma tarkibidagi erkin element bu iboraning erkin so'zlar bog'lanmasi va sintaktik bog'lanmalarga o'xshashlik tomonini ko'rsatadi, ammo frazeologik qo'shilmalarni sintaktik bog'lanmadan farqlay bilish kerak. Bu farqni quyidagi misollar bilan ko'rish mumkin:

Achchiq choydan bo'lsin.

Bunday achchiq gaplardan endi biz ham benasib qolmadik [21,89-90].

Birinchi misoldagi *achchiq choy* iborasi sintaktik ibora bo'lib, har bir so'z leksik ma'nosida qo'llanmoqda, ikkinchi misoldagi *achchiq gap* iborasi frazeologik qo'shilma hisoblanadi, chunki bunda *gap* so'zi o'z ma'nosida, *achchiq* so'zi esa ko'chma ma'noda (koyituvchi, ranjituvchi ma'nolarida) ishlatilgan.

Xulosa. Frazeologizmlarni milliy tadqiq qilishda tilshunoslikda keng tarqalgan *distributiv metoddan* foydalanish mumkin. Frazeologizmlarning nutqda ishlatilish xususiyatlarining distributiv metod yordamida o'rganish orqali ularning struktural-semantik belgilari chuqurroq aniqlanadi. Undan tashqari, frazeologizmlarni o'rganishda ularning semantik-struktural belgilarini tilning rejasi bilan uning ifoda rejasini munosabati borasida qaramoq zarur. Frazeologizmlarning tarkibini tekshirishda uning komponentlari o'rtasidagi birikish turlarini birikuvchi so'zlarning tabiatini *valentlik metodi* asosida qaramoq zarur [22,59]. Frazeologizmlarning strukturasi va ma'nolari bir-biriga qarama-qarshi qo'yish (opozitsiya) aniqliklarga olib keladi. Frazeologizmlarning grammatik tomonlarini ham hisobga olish zarur. Chunki frazeologizmlarning komponentlari o'rtasidagi sintaktik aloqalar, ularga qo'shiluvchi affikslar muhim rol o'ynaydi. Frazeologizmlarning xususiyati shundaki, ularning ma'nolarini so'zma-so'z, aynan tushunish mumkin emas, balki uning "ostida yotgan" ma'nosini anglash zarur. Masalan, "*bu odamning ko'ngliga qo'limni solib ko'rsam, niyati buzuq ekan*", jumlasidagi ko'ngliga qo'limni solib ko'rsam so'zlari aynan tushunilsa, hech qanday ma'no chiqmaydi, bu yerda uning nima niyatda ekanini surishtirib ko'rsam degan ma'no bor. Frazeologizmlarning bir-birlari o'rnini ishlatila olish xususiyati substansiya metodi yordamida, ularning turg'un va almashtiruvchi komponentlari o'rtasidagi bog'lanishlar transformatsiya metodi yordamida chuqurroq ochiladi. Frazeologizmlarning struktural-sintaktik metodida har bir so'z ham mustaqil ma'noga ega bo'lmaydi. Frazeologizmlarning komponentlari ikki va undan ortiq bo'lishi mumkin. Ko'p komponentli frazeologizmlar ko'proq maqollarda uchraydi.

Xulosa qilib aytganda, frazeologik birliklar tilda alohida sistemani tashkil etadi. Ular semantik-grammatik jihatdan shakllangan iboralardir. Ular o'ziga xos morfologik va sintaktik tuzilishga ega. Frazeologizmlar tarkibidagi so'zlar grammatik va semantik jihatdan bir-biri bilan uzviy bog'liq holda bir butun ma'no anglatadi. Frazeologizmlar ko'chma ma'noda, obrazli ifodalarda qo'llaniladi. Ularning tarixiy qo'llanish me'yorlari, usullari muayyan nutq jarayonida oydinlashadi, chunki ular to'liq yoki qisman ko'chma ma'noga ega bo'lgan turg'un so'z birikmalaridir.

ADABIYOTLAR:

- 1) Abdullayev A. *Frazeologizmlarning ekspressivlik xususiyati*. – T.: O'TA. 1976. 5-son.
- 2) Abdullayev A. *O'zbek tilida ekspressivlikning ifodalanishi*. – T.: Fan. 1983.
- 3) Амосова Н. Н. *Основы английской фразеологии*. – М. 1963.-С.46-49.
- 4) Ахманова А. С. *Словарь лингвистических терминов*. – М.: СЭ.1966.-С.17-21.
- 5) Antrushina G.V. *English Lexicology*. – М. 1985.
- 6) Bafoyeva M. *Badiiy nutqda frazeologik sinonimlardan foydalanish*. – T.: O'TA. 2003. 2-son.-B.43-45.
- 7) Doniyorov X. Yo'ldoshev B. *Adabiy til va badiiy stil*. – T.: Fan. 1988.
- 8) Федулёноква Т.Н. *Английская фразеология*. – Архангельск, 2000.132с.
- 9) Gizburug G.V. *A Course in Modern English Lexicology*. – М. 1966.
- 10) Haydarov A., Choriyeva Z. *Ingliz tilida frazeologik birliklarning semantik-grammatik va uslubiy xususiyatlari. Tilning leksik-semantik tizimi va qiyosiy tipologik izlanishlar: sinxroniya, dioxroniya materiallar to'plami*. – T.: Muharrir. 2012. –B.8-10.
- 11) Haydarov A., Jo'raqulova G. *Frazeologik iboralar tarjimasi xususida. Tilning leksik-semantik va qiyosiy tipologik izlanishlar: sinxroniya, dioxroniya materiallar to'plami*. – T.: Muharrir. 2012. –B.10-13.
- 12) Hojiyeva Z. *Выявление национально-культурной специфики фразеологических единиц: Современные подходы*. – ВухDU Ilmiy Axboroti. 2012. № 3 (47). –B.96-99.
- 13) Jann Huizenga "Stories and idioms for real life" Oxford University Press.2000.
- 14) Кунин А.В. *Курс фразеологии современного английского языка*.–М. 1986.
- 15) Кунин А.В. *Англо-русский фразеологический словарь*. – М.1967.
- 16) Mamatov A.E. *O'zbek tili frazeologizmlarining shakllanishi*. – T. 1997.
- 17) Mamatov A. E. *O'zbek tilida frazeologizmlarning shakllanishi masalalari*. – T.: O'TA.2001.3-son.
- 18) Mamatov A. *Almatova Sh. Farzeologik transpozitsiya va uni o'rganish haqida. Uslubshunoslik va frazeologizmlarning dolzarb mummolari. Ilmiy-nazariy konfirentsiya materiallari*. – Samarqand. 2007.-B.68-70.
- 19) Mamatov A. E. "Frazeologik stilistika masalalari" T; 1992.

LINGUISTICS

20) Mamatov A. *“Hozirgi o‘zbek adabiy tilida leksik va grammatik norma muammolari” T; 1991.*

21) Narimonova Z. *Frazeologik iboralarning tarjimasi haqida.-T.:O‘zMU to‘plami. 2007.*

22) Niyazmetova D. *Ingliz tilida oziq-ovqat komponentli frazeologizmlarning lingvistik tadqiqi (Bibliya materiallari asosida). BuxDU Ilmiy Axboroti. 2012.4-son.*